



CHOG'ISHTIRILAYOTGAN TILLARDA MUSIQA TERMINLARINING
LEKSIK-SEMANTIK TIZIMI VA ETIMOLOGIK TADQIQI

G.Y.Yusupova

International School of Science, Finance and Technology, teacher;

Independent Researcher, UzSWLU.

yusupovagulizebo@gmail.com

[tel:\(99\)3419112](tel:(99)3419112)

Annotatsiya

Ushbu maqolada chog'ishtirilayotgan ingliz va o'zbek tillaridagi musiqa terminologiyasining leksik-struktural, etimologik hamda semantik-derivatsion xususiyatlari tadqiq etiladi. Musiqa terminlari asboblari (organonimlar), vokal diapazonlari, uslub va yo'nalishlar, musiqa nazariyasi hamda kasb-unvonlar guruhlari bo'yicha tasniflangan. Har ikkala dildagi musiqiy leksikaning shakllanishida tub qatlam, tarixiy o'zlashmalar hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar natijasida kirib kelgan xalqaro terminlarning o'rni va lingvo-madaniyatshunoslik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *musiqa terminologiyasi, organonimlar, etimologiya, semantik derivatsiya, tub qatlam, o'zlashma so'zlar, globallashuv, ingliz va o'zbek tillari.*

Annotation

This article examines the lexical-structural, etymological, and semantic-derivational characteristics of musical terminology in English and Uzbek. Musical terms are classified into categories such as instruments (organonyms), vocal ranges, styles and directions, music theory, and musical professions. The study provides a comparative analysis of the role and linguo-culturological features of native vocabulary, historical loanwords, and modern international terms introduced through digital technologies in both languages.

Keywords: *musical terminology, organonyms, etymology, semantic derivation, native layer, loanwords, globalization, English and Uzbek languages.*

Аннотация

В данной статье исследуются лексико-структурные, этимологические и семантико-derivационные особенности музыкальной терминологии в английском и узбекском языках. Музыкальные термины классифицированы по группам: инструменты (органонимы), вокальные диапазоны, стили и направления, теория музыки и специальности. Проведен сравнительный анализ роли и лингвокультурологических особенностей исконного слоя, исторических заимствований и современных международных терминов, вошедших в оба языка с развитием цифровых технологий.


Ключевые слова: *музыкальная терминология, органонимы, этимология, семантическая деривация, исконный слой, заимствованные слова, глобализация, английский и узбекский языки.*



Kirish

Musiqqa bu bilimimizki insoniyatning eng qadimiy va universal aloqa vositalaridan biri bo'lsada, uni ifodalovchi terminlar tizimi har bir davlatning tili, tarixi, madaniyati va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi zamonaviy tilshunoslikda esa tillarni tizimli – strukturaviy va komparativ o'rganish alohida o'rin egallaydi. Hozirgi globallashuv jarayonida musiqa terminlarini o'rganishda va ularni integratsiyalashda g'arb va sharq madaniyatining o'zaro ta'siri natijasida terminologik qatlam ham globallashmoqda. Tillararo konseptual farqlarni va o'xshashliklarni aniqlash tilshunoslikning eng faol yo'nalishlaridan biridir. Bilamizki chog'ishtirilayotgan tillar yani, ingliz va o'zbek tillari o'rtasida musiqa terminlarining mukammal tarjima va izohli lug'atlarini yaratish uchun ularning semantic maydonini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Musiqa terminlarining qanday qilib umumxalq tiliga ko'chishi va ijtimoiy hayotni ifodalashini o'rganish inson tafakkurining lisoniy modelini ocib beradi. Bu esa chog'ishtirilayotgan tillar o'rtasidagi o'xshash va noo'xshash terminlarning leksik-struktur jihatlarini, terminlarning kelib chiqishini, ma'no munosabatlarini, leksik maydonlar va ularning ko'chma ma'no kasb etish xususiyatlarini tillar misolida chuqurroq yondashuv asosida keng qamrovli qiyoslashga va musiqa terminlari shunchaki asboblar yoki janrlar nomlari yig'indisi bo'lib qolmasdan, balki madaniy kodlar, tarixiy qatlamlar va til sohiblarining kognitiv xususiyatlarini aks ettiruvchi murakkab lingvistik tizim sifatida qaraladi. Tadqiqotimiz jarayonida terminlarning shakillanish mexanizimlari, ularning etimologik ildizlari va semantic derivatsiya usullaridagi o'xshash hamda faqli jihatlarini haqida izlanishlar olib borib. Biz ularni quyida keltirilgan 2.1-jadvalga ko'ra guruhlariga bo'lib tahlil qildik.

2.1-jadval






2.1- chizmadan ko'rinib turibdiki, ko'plab nazaryalardan kelib chiqib, biz umumiy musiqa terminlarni beshta guruhga bo'lib o'rgandik. Yuqorida guruhlarning nomlari va izohlarini quyida berib ketamiz.

1. Musiqa asboblari oid terminlar tahlili- bunda musiqa musiqa asboblari oid terminlari, ya'ni, zarbli asboblari, puflama asboblari, torli asboblarga bog'liq bo'lgan terminlarni o'rganar ekanmiz ularni ham quyidagi bir nechta guruhlarga bo'lib o'rgandik (2-2-chizmaga qarang).

2.2-chizma



2.2-chizmadan ko'rinib turibdiki, musiqa asboblari nomlari ham o'z ichida yana bir nechta guruhlarga ajratiladi. Ingliz va o'zbek tilining musiqa terminologiyasi ham asosan uchta manba hisobiga shakillangan hisoblanadi. Bu terminlarni va ularning izohini quyidagicha keltirishni joyiz deb topdik.

A) Tub qatlam- tilning o'z asosiy so'zlardan yasalgan terminlar qatlami bo'lib, bu qatlamga xalqning eng qadimgi, ko'chmanchi yoki ilk o'troq hayot tarzi davrida yaratilgan, sodda tuzilishga ega asboblari kiradi. Ikkala tilda ham bu atamalar bevosita tabiat ne'matlari (hayvon shoxi, qamish, yog'och) yoki oddiy harakatlar (urish, puflash) nomlaridan olingan. Masalan:

Ingliz tilida: Horn: (Puflama mis asbob). Leksik asosi: Ashyo/Metonimiya. Qadimgi inglizcha horn (hayvon shoxi). Hayvon shoxidan pufab tovush chiqarilgani uchun asbob nomi shoxligicha qolgan.





Harp: (Arfa, torli asbob). Leksik asosi: Harakat nomi. Qadimgi german tillaridagi harpon (chertmoq, torlarni tortmoq) fe'lidan yasalgan.

Fiddle: (Xalqona skripka turi). Leksik asosi: Harakat/Tovush. Qadimgi inglizcha fiðele o'zagidan bo'lib, torlarni arralash/kamon tortish harakatini bildiradi. (Klassik Violin so'zining sof inglizcha ekvivalenti).

Drum: (Nog'ora/Baraban). Leksik asosi: Tovushga taqlid. O'rta asr german tillaridagi tromme yoki drumme — tarillagan, gumburlagan tovush taqlididan yasalgan.

Pipe: (Puflama nay). Leksik asosi: Shakl. Qadimgi inglizcha pīpe (ichi bo'sh silindr/naycha). Asbobning tashqi tuzilishidan kelib chiqqan.

Bell: (Qo'ng'iroq). Leksik asosi: Tovush/Harakat. Qadimgi inglizcha belle. Bu so'z inglizchadagi bellow (baqirmoq, qattiq jaronglash) harakat fe'li bilan bitta o'zakka ega.

O'zbek tiloda: Do'mbira: (Torli-chertma asbob). Leksik asosi: Tovushga taqlid. Asbobdan chiqadigan "do'm-do'm" yoki "dum-dum" bo'g'iq ovozi ovozidan yasalgan.

Sibizg'a: (Sodda puflama nay). Leksik asosi: Harakat nomi. Qadimgi turkiydagi "sibiz" (hushtak chalmoq, ingichka ovoz chiqarmoq) fe'lidan yasalgan.

Qo'biz: (Kamonli-torli asbob). Leksik asosi: Shakl. Qadimgi turkiydagi "qovuz/qobiq" so'zidan kelib chiqqan (kosasi chuqur o'yilgan shaklda bo'lgani uchun).

Tuyoq: (Zarbli asbob). Leksik asosi: Ashyo/Metonimiya. Qotirilgan ot tuyog'idan yasalgani uchun ashyoning nomi asbob nomiga ko'chgan.

Qayroq: (Zarbli tosh asbob). Leksik asosi: Harakat / Ashyo. Qayroqtoshlarni bir-biriga urib (qayrab) chalingani uchun shu nomni olgan.

Shildiroq: (Jaranglovchi bezak/asbob). Leksik asosi: Tovushga taqlid. Metall qismlarning bir-biriga urilishidan chiqadigan "shildir-shildir" ovoziga taqlid qilingan.

Chig'irtma (yoki Chiyriq): (Puflama asbob). Leksik asosi: Tovush/Harakat. Qamishdan chiqadigan chiyillagan tovush sababli turkiy "chig'irlamoq" fe'lidan olingan.

b) Tarixiy o'zlashgan qatlam — bu xalqlarning boshqa madaniyatlar bilan savdo-sotiq, din va ilm-fan orqali aralashuvi natijasida tilga kirib kelgan so'zlardir. Musiqa tarixida bu jarayon juda kuchli kechgan.

O'zbek xalq musiqa leksikasining katta qismi Buyuk Ipak yo'li va Islom Renessansi ta'sirida fors va arab tillaridan o'zlashgan. Ingliz klassik musiqasi esa Norman istilosi va Uyg'onish davri natijasida fransuz, lotin va italyan tillaridan shakllangan. Masalan:

O'zbek tilida: Bu terminlarning aksariyati kasbiy-professional musiqaga oid bo'lib, asboblarning qismlari yoki ularning madaniy funksiyasini aniq matematik va mantiqiy asosda tushuntiradi.

Dutor: (Torli asbob). Manba: Fors tili. Leksik asosi: Miqdor va Ashyo. Forscha "do" (ikki) va "tar" (tor, ip) so'zlarining qo'shilishidan yasalgan. To'g'ridan-to'g'ri "ikki torli asbob" ma'nosini beradi.

Tanbur: (Torli asbob). Manba: Fors/Arab (asli kelib chiqishi qadimgi shumer-akkad tillariga boradi). Leksik asosi: Harakat yoki Ovoz. "Tandur" (yurakni tirnash, ohang taratish) ma'nosiga ega. Sharq klassik musiqasining (xususan, Shashmaqomning) yetakchi asbobi.



Karnay: (Puflama mis asbob). Manba: Fors tili. Leksik asosi: Hajm va Ashyo. "Kar" (katta, ulkan) va "nay" (naycha, qamish) soʻzlaridan. Katta nay ma'nosini bildiradi.

Surnay: (Puflama asbob). Manba: Fors tili. Leksik asosi: Ijtimoiy funktsiya. "Sur" (to'y, bayram, tantana) va "nay" soʻzlaridan. Ya'ni asbobning tuzilishi emas, uning qayerda chalinishi nomga asos boʻlgan (to'y nayi).

G'ijjak: (Kamonli asbob). Manba: Fors tili. Leksik asosi: Tovushga taqlid. Forscha "g'ich" yoki "g'ij" oʻzagidan yasalgan boʻlib, kamonning torga ishqalanishidan chiquvchi oʻziga xos ovozni bildiradi.

Nog'ora: (Zarbli asbob). Manba: Arab tili. Leksik asosi: Harakat nomi. Arabcha "naqqara" (urmoq, taqillatmoq, cho'qimoq) fe'lidan olingan. Urilib chalinadigan asboblarning umumiy nomi.

Doira: (Zarbli asbob). Manba: Arab tili. Leksik asosi: Shakl. Arab tilida to'g'ridan-to'g'ri "aylana, gardish" ma'nosini bildiradi. Asbobning geometrik shakli uning nomiga aylangan.

Nay: (Puflama asbob). Manba: Fors tili. Leksik asosi: Ashyo nomi (Metonimiya). Fors tilida "qamish" degani. Dastlab qamishning o'zi bo'lgan, keyin undan yasalgan asbob shunday atalgan.

Chang: (Torli-zarbli asbob). Manba: Fors tili. Leksik asosi: Harakat va shakl. "Chang" soʻzi changal, panja, tirnash kabi ma'nolarni beradi. Ikkita cho'p (mizrob) bilan chalingani uchun shunday nomlangan.

Ingliz tilida: (Lotin, Fransuz va Italyan tillaridan kirib kelgan terminlar) Ingliz tiliga O'rta asrlar va Uyg'onish davrida chetdan kirgan terminlar, odatda, murakkab konstruksiyali klassik orkestr asboblari hisoblanadi.

Flute: (Fleyta). Manba: Qadimgi Fransuz (flaute) / Lotin (flatus). Leksik asosi: Harakat nomi. Lotincha "flatus" (puflash, nafas chiqarish) soʻzidan yasalgan.

Lute: (Lyutnya, torli asbob). Manba: Fransuz (lut) arab tilidan. Leksik asosi: Ashyo. Qiziq tarix: Arabcha "al-'ud" (yog'och, daraxt) ispan va fransuz tillari orqali ingliz tiliga "Lute" bo'lib o'tgan.

Trumpet: (Truba). Manba: Eski Fransuz (trompette). Leksik asosi: Shakl va Hajm. Fransuzcha "trompe" (fil xartumi, shox) soʻziga "-ette" (kichraytirish qo'shimchasi) qo'shilishidan "kichkina xartum/shox" ma'nosida yasalgan.

Clarinet: (Klarnet). Manba: Fransuz (clarinette) / Lotin (clarus). Leksik asosi: Ovoz sifati. Lotincha "clarus" (toza, tiniq, ravshan) oʻzagidan. Kichraytirish qo'shimchasi orqali "toza ovozli kichik asbob" ma'nosini beradi.

Oboe: (Oboy, puflama asbob). Manba: Fransuz (hautbois). Leksik asosi: Ovoz darajasi va ashyo. Fransuzcha "haut" (baland, qattiq) va "bois" (yog'och) soʻzlari birikuvidan: "baland ovozli yog'och asbob".

Piano: (Klavishli asbob). Manba: Italyan (pianoforte). Leksik asosi: Dinamik xususiyat (Qarama-qarshilik). Italyancha "piano" (sekin, mayin) va "forte" (qattiq, baland). Asbob ham sekin, ham baland chalina olish xususiyati bilan nomlangan, inglizlar uni qisqartirib faqat "piano" (sekin) deb olishgan.



Violin: (Skripka). Manba: Italyan (violino) / Lotin (vitula). Leksik asosi: Hajm/O'lchov. "Viola" (katta skripka) so'ziga italyancha "-ino" (kichraytirish) qo'shimchasi qo'shilgan: "kichkina viola".

Cello: (Violonchel). Manba: Italyan (violoncello). Leksik asosi: Hajm qatlamlari. "Violone" (katta viola) so'ziga "-cello" (kichraytirish) qo'shilgan. Ya'ni, "katta violaning kichkinasi".

Guitar: (Gitara). Manba: Ispan (guitarra) / Yunon (kithara). Leksik asosi: Tarixiy vorislik. Qadimgi yunonlarning klassik torli asbobi "kithara" nomining ispan tili orqali vizual va fonetik modifikatsiyasi.

b) Zamonaviy (xalqaro) musiqa texnologiyalari va terminlarining leksik tahlili tilshunoslikda butunlay boshqacha manzarani kashf etadi. Agar tarixiy qatlamda o'zbek tili fors-arab tillariga, ingliz tili esa lotin-fransuz tillariga tayangan bo'lsa, globallashuv va raqamli asrda (XIX asr oxiridan to bugungacha) vaziyat o'zgardi.

Bugungi kunda ingliz tili musiqa texnologiyalari uchun asosiy "donor" (bosh manba) tilga aylangan. Leksika asosan qadimgi yunon-lotin ilmiy o'zaklaridan sun'iy yasaladi yoki ingliz tilidagi oddiy so'zlar axborot texnologiyalari sababli mutlaqo yangi semantik ma'no kasb etadi. O'zbek tili esa bu so'zlarni yo to'g'ridan-to'g'ri (kalkalamasdan) yoki rus tili orqali o'zlashtirmoqda.

1. Ilmiy o'zaklardan yasalgan xalqaro terminlar (Yunon-Lotin asosi) Bu terminlar muayyan qurilmalarning fizik yoki akustik funksiyasini anglatish uchun olimlar va muhandislar tomonidan sun'iy yaratilgan.

Synthesizer (Sintezator) Leksik asosi: Jarayon (Sun'iy yasash). Tahlil: Yunoncha synthesis (birlashtirish, yig'ish, qo'shish) so'ziga inglizcha bajaruvchini anglatuvchi -er qo'shilgan. O'zbek tiliga rus tili orqali -tor qo'shimchasi bilan o'zlashgan. Turli tovush to'liqlarini birlashtirib, yangi ovoz "sintez qiluvchi" elektron asbob.

Microphone (Mikrofon) Leksik asosi: Hajm va Ovoz. Tahlil: Yunoncha mikros (kichik) va phone (tovush, ovoz). Kichik tovushlarni tutib, kattalashtirib beruvchi moslama. Bu termin dunyoning deyarli barcha tillarida bir xil aytiladi.

Acoustic (Akustika / Akustik gitara) Leksik asosi: Sezgi a'zosi. Tahlil: Yunoncha akoustikos (eshitishga oid) so'zidan olingan. Zamonaviy musiqada bu so'z elektr tarmog'iga ulanmasdan, o'zining tabiiy bo'shlig'i hisobiga ovoz chiqaruvchi asboblarga (masalan, akustik gitara) nisbatan ishlatiladi.

Metronome (Metronom) Leksik asosi: Qonuniyat va O'lchov. Tahlil: Yunoncha metron (o'lchov) va nomos (qonun, qoida). Ritm va tempni aniq matematik o'lchovda ushlab turuvchi asbob.

Phonogram (Fonogramma) Leksik asosi: Yozib olingan axborot. Tahlil: Yunoncha phone (ovoz) va gramma (yozuv). Ingliz tilida bu shunchaki yozib olingan ovoz yozuvini anglatganda, o'zbek va postsovet hududida semantik torayish yuz berib, "tayyor musiqaga (va ovozga) og'iz qimirlatib kuylash" ma'nosida leksikallashgan.



DJ (Didjey) Leksik asosi: Qisqartma / Kasb nomi. Tahlil: Disc Jockey (Disk chavandozi). Disc (grammofon plastinkasi) va Jockey (ot minuvchi, boshqaruvchi). Pultda musiqalarni boshqaruvchi shaxs. O'zbek tilida bitta to'laqonli so'z sifatida leksikallashgan.

Amplifier / Kuchaytirgich Leksik asosi: Kalkalash (To'g'ridan-to'g'ri ma'no ko'chishi). Tahlil: Lotin-inglizcha amplifiy (kattalashtirmoq, kuchaytirmoq) so'zi o'zbek tiliga ruscha usulitil orqali yoki o'zbekcha "kuchaytirgich" tarzida kal'ka (suzma-so'z tarjima) bo'lib kirgan. Bu asbob elektr signallarini balandlatib (kuchaytirib) beradi.

Xulosa qilib aytganda Ingliz va o'zbek tillaridagi musiqa terminologiyasining leksik-struktural va etimologik tahlili shuni ko'rsatadiki: Etimologik o'ziga xoslik: O'zbek tili musiqiy leksikasi tarixan turkiy tub qatlam va fors-arab manbalariga tayanadi. Ingliz tilida esa germancha tub o'zaklar va rim-germaniyaliklar orqali kirgan lotin, fransuz hamda italyan o'zlashmalari ustunlik qiladi. Nomlash mexanizmlari: Tub qatlamda har ikkala dilda ham tovushga taqlid (onomatopoeia), shakl va ashyo metonimiyasi yetakchi o'rin tutadi. Zamonaviy tendensiyalar: Globallashuv davrida musiqa texnologiyalari leksikasi bo'yicha ingliz tili yetakchi donor til vazifasini bajarmoqda. O'zbek tili ushbu xalqaro neologizmlarni o'zlashma va kalkalash usuli orqali qabul qilib, o'z terminologik tizimini boyitib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarov, I. (1997). Musiqa lug'ati. Toshkent: O'qituvchi.
2. Aleshinskaya, E. V. (2008). Osnovy sovremennogo terminologicheskogo slovarya. Moskva.
3. Danilenko, V. P. (2017). Vvedenie v yazykoznanie: Kurs lektsiy. 5-e izd. Moskva: Flinta: Nauka.
4. Ivina, L. V. (2003). Linguo-cognitive basics of the analysis of professional terminology. Moscow: Academy.
5. Kittay, E. F. (1967). English Technical Terminology. London: Longman.
6. Pardayev, A., Urinbayeva, D., & Islamova, D. (2020). O'zbek terminologiyasi. Samarqand: SamDU nashri.
7. Tarasti, Eero. (1994). A Theory of Musical Semiotics. Bloomington: Indiana University Press.
8. Yusupov, U. K. (2007). Contrastive Linguistics of English and Uzbek. Tashkent: Fan.